TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 2 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

Contents

F. T. Baitova	Sociocultural Transformation of Kyrgyz Society: Historical Experience and Contemporary Trends	6
Sh. H. Sattarov	Service Sector Diversification in the Context of Uzbekistan's Digital Economic Transformation	11
R. Hasanov	Ahsikent: A Great Center of Civilization	16
S. Dj. Saidova	From Historical Heritage to Modernity: The Evolution of National Clothing	21
B. R. Karimov	The Contribution of the Timurid Renaissance to the Development of World Civilization	24
Y. Akhmedov	The Security Service in Amir Temur's State: The Foundation of Strategic Stability and Power	27
A. S. Kaliev *N. B. Bazarbaev*	Civic Identity in the Context of Globalization	31
F. Bozorova	The Socioeconomic Essence of Enhancing Public Welfare through Strengthening Household Activity in Uzbekistan	36
G. Y. Şirvanzadə	The History of Pedagogy and the Educational Ideas of Azerbaijani Intellectuals	39
Sh. Yuldoshev	Economic Implications of Government Price Regulation: Benefits, Drawbacks, and Policy Recommendations	41
M. E. Khujamov *S. M. Madumarov*	The Role of Amir Temur in the Education and Upbringing of Youth	44
O. O. Rahmatov	The Role of Social Conflicts in the Formation of Political Risks in Modern Society	46
I. X. Saidova	The Contribution of Women to Supporting Society in the Context of Global Conflict	49
I. B. Kamilova	Development of Communicative Competence in Fifth-Grade Students in Uzbek-Medium Education	52
Sh. U. Amirova	Cognitive and Linguocultural Aspects of Studying Mental Structures in Typologically Different Languages: A Case Study of Russian and Uzbek Proverbs	54
R. R. Rafikova	Methods of Integrated Lessons in Teaching Russian Grammar in Primary and Secondary Schools	59
M. Akhmedova	Methodology for Improving the Study of Ethnopedagogical Elements in the National Education System	61
A. S. Kaliev	Political Analysis of the Expansion Russian Empire on the Formation of the Civil Identity in Kyrgyz People	66
K. Yuldoshev	Sahibqiran Amir Temur in Karmana	72
V. A. Bekmurodova	Developing Oral Communication Skills among Uzbek School Students through the Comparative Study of Russian and Uzbek Speech Etiquette	74
F. B. Ismailova	The Role of Social Sciences in Societal Development: The Integration of Human Capital, Economic Reforms, and Digital Transformation	78
A. Kenjaeva	Effective Audio Formats for Developing Foreign Learners' Oral Communication Skills	81
Ch. Eshboboeva	Social Sciences and Societal Development: Strategic Directions for Sustainable Development	83
S. Burxonova	Methodological Approaches to the Study of Ethical Values in Pedagogy	86
S. Aliyev	The Role of Well-Being Psychology in Psychotherapy	88

Economic Implications of Government Price Regulation: Benefits, Drawbacks, and Policy Recommendations

Yuldoshev Sherzod (Teacher)[1]

[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article examines the economic effects of government price regulation. Policies such as price ceilings and price floors are widely used to reduce inflation, protect low-income households, and keep essential goods affordable. However, when such measures remain in place for a long time, they may create shortages, informal markets, lower product quality, and reduced investment.
The study reviews experiences from United States fuel price controls, Venezuela food pricing policies, and Uzbekistan regulations on selected socially important goods. The findings show that price controls can be useful during emergencies or temporary crises, but permanent controls often reduce market efficiency.
Keywords: price controls, government policy, inflation, market efficiency, shortages, Uzbekistan

Davlat tomonidan narxlarni tartibga solishning iqtisodiy oqibatlari: afzalliklari, kamchiliklari va siyosat tavsiyalari

Yuldoshev Sherzod Yusup o‘g‘li (o‘qituvchi)[1]

[1.] Toshkent Iqtisodiyot va Texnologiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Ushbu maqolada davlat tomonidan narxlarni tartibga solishning iqtisodiy ta’siri tahlil qilinadi. Narxlarni cheklash yoki eng kam narx belgilash siyosati ko‘plab mamlakatlarda inflyatsiyani pasaytirish, aholining kam daromadli qatlamini himoya qilish va muhim mahsulotlar narxini barqaror saqlash maqsadida qo‘llanadi. Biroq bunday choralar uzoq muddat davom etsa, bozorda tanqislik, yashirin savdo, sifatning pasayishi va investitsiya kamayishiga olib kelishi mumkin.
Tadqiqotda AQShdagi yoqilg‘i narxlari nazorati, Venesueladagi oziq-ovqat siyosati hamda Uzbekistandagi ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar bo‘yicha tajribalar ko‘rib chiqildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, narx nazorati favqulodda holatlarda foydali bo‘lishi mumkin, ammo doimiy qo‘llansa bozor samaradorligini pasaytiradi.
Kalit so‘zlar: narx nazorati, davlat siyosati, inflyatsiya, bozor, tanqislik, O‘zbekiston

Davlat tomonidan narxlarni tartibga solish iqtisodiy siyosatdagi eng bahsli masalalardan biridir. Inflyatsiya kuchaygan, urush, energetika tanqisligi yoki oziq-ovqat inqirozi yuzaga kelgan davrlarda ko‘plab hukumatlar aholini himoya qilish va ijtimoiy barqarorlikni saqlash maqsadida narxlarga aralashadi[1;2]. Odatda narxning yuqori chegarasi oziq-ovqat, yoqilg‘i, dori vositalari va uy-joy kabi zarur mahsulotlarga qo‘llanadi[3]. Narxning quyi chegarasi esa ko‘pincha qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Bunday choralar qisqa muddatda samarali ko‘rinsa-da, ularning uzoq muddatli iqtisodiy oqibatlari murakkab hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqoti

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, bozor sharoitida narx talab va taklif muvozanatini ta’minlaydi. Agar davlat narxni muvozanat darajasidan past belgilasa, talab oshadi, taklif esa kamayadi. Natijada bozorda tanqislik yuzaga keladi[4]. Aksincha, narx sun’iy ravishda yuqori belgilanganda ortiqcha mahsulot paydo bo‘lishi mumkin. Bu esa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi.

$$Qd=f(P), Qs=g(P)$$

Tarixiy tajribalar ham buni tasdiqlaydi. AQShda 1970-yillardagi neft inqirozi davrida yoqilg‘i narxlarini cheklash siyosati joriy etilgan[5]. Bu qaror iste’molchilarni himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, natijada uzun navbatlar va yoqilg‘i tanqisligi kuzatilgan. Venesuelada oziq-ovqat va kundalik mahsulotlarga qat’iy narx nazorati o‘rnatilgach, bozorda tanqislik va yashirin savdo kuchaygan[6].

Biroq narxlarni to‘liq erkinlashtirish ham har doim ham oson kechmaydi. Ayrim o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda narxlarning birdan erkinlashuvi qisqa muddatda keskin inflyatsiyani keltirib chiqargan. Shu sababli davlatning vazifasi bozorni to‘liq cheklash emas, balki raqobatni rivojlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va adolatli muhit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston uchun bu masala ayniqsa dolzarbdir. So‘nggi yillarda mamlakatda bozor islohotlari, valyuta erkinlashuvi va inflyatsiyani pasaytirishga qaratilgan siyosat olib borilmoqda. Shu bilan birga, kommunal xizmatlar, energiya resurslari va ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlarda davlatning roli saqlanib qolmoqda. Demak, ijtimoiy himoya bilan bozor samaradorligi o‘rtasida muvozanat topish muhim vazifadir.

Mazkur maqolaning maqsadi davlat tomonidan narxlarni tartibga solishning afzalliklari va kamchiliklarini nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida O‘zbekiston uchun maqbul siyosiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot shuni ilgari suradiki, vaqtinchalik va aniq maqsadli narx nazorati favqulodda vaziyatlarda foydali bo‘lishi mumkin, biroq doimiy nazorat

ko‘pincha bozor samaradorligini pasaytiradi.

Metodlar va natijalar. Davlat tomonidan narxlarni tartibga solish masalasi iqtisodiyot fanida uzoq yillardan beri o‘rganib kelinmoqda. Klassik iqtisodchilar bozor narxi talab va taklif asosida shakllanishi kerakligini ta’kidlaganlar. Alfred Marshall narx mexanizmini bozor muvozanatini ta’minlovchi asosiy vosita sifatida izohlagan[7]. Uning fikricha, davlatning ortiqcha aralashuvi narx signallarini buzadi va resurslar noto‘g‘ri taqsimlanishiga sabab bo‘ladi.

Keyinchalik John Maynard Keynes iqtisodiy inqiroz, ishsizlik va talab yetishmovchiligi sharoitida davlatning faol ishtiroki zarurligini asoslab berdi. Keynes yondashuviga ko‘ra, ayrim favqulodda vaziyatlarda davlat narxlar, foiz stavkalari yoki xarajatlar orqali bozorga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli zamonaviy iqtisodiyotda narx nazorati masalasi mutlaq rad etilmaydi, balki vaziyatga qarab baholanadi[8].

Zamonaviy tadqiqotlarda narx chegaralarining turli bozorlarga ta’siri keng o‘rganilgan. Uy-joy ijarasi bozorida narx cheklovlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarda qisqa muddatda ijarachilar foyda ko‘rishi, biroq uzoq muddatda uy-joy taklifi kamayishi aniqlangan. Ayrim tadqiqotchilar uy egalari ta’mirlash xarajatlarini qisqartirishi natijasida sifat pasayishini qayd etganlar[9;10].

Qishloq xo‘jaligida minimal narx belgilash bo‘yicha tadqiqotlar fermer daromadini barqarorlashtirishini ko‘rsatadi[12]. Biroq bunday siyosat ko‘pincha ortiqcha mahsulot zaxirasini yuzaga keltiradi va davlat byudjetiga qo‘shimcha yuk tushiradi. Yevropa davlatlarining agrar siyosatida bunday holatlar bir necha bor kuzatilgan.

Energetika bozorida narx nazorati bo‘yicha izlanishlar ham muhim o‘rin tutadi. AQShda 1970-yillarda yoqilg‘i narxlarini cheklash navbatlar, taqchillik va hududlar o‘rtasida taqsimot muammolarini keltirib chiqargan. Ayrim Lotin Amerikasi davlatlarida esa uzoq muddatli subsidiya va narx nazorati davlat moliyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

So‘nggi yillarda inflyatsiya davrida oziq-ovqat narxlarini vaqtinchalik cheklash bo‘yicha tadqiqotlar ham ko‘paydi. Ularning xulosasiga ko‘ra, qisqa muddatli va aniq yo‘naltirilgan choralar ayrim hollarda ijtimoiy himoya vazifasini bajaradi[11]. Ammo uzoq davom etadigan qat’iy cheklovlar bozordagi rag‘batlarni susaytiradi.

O‘zbekiston bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda narx liberallashuvi, energiya tariflari islohoti va bozor institutlarini rivojlantirish masalalari ko‘proq o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, narxlarni bosqichma-bosqich erkinlashtirish ijtimoiy himoya mexanizmlari bilan birga olib borilganda samaraliroq natija beradi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar narxlarni tartibga solish siyosatining natijasi mamlakat institutsional sifati, bozor raqobati darajasi, nazorat muddati va qo‘shimcha ijtimoiy siyosatlarga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shu bois mazkur mavzu bo‘yicha umumiy emas, balki sharoitga mos yondashuv zarur.

Mazkur tadqiqotda aralash yondashuv, ya’ni sifat va miqdor usullarini birlashtirgan metodologiya qo‘llanildi. Bunday usul narxlarni tartibga solishning nazariy va amaliy oqibatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Narx nazorati, bozor muvozanati, inflyatsiya va davlat aralashuvi bo‘yicha klassik hamda zamonaviy manbalar o‘rganildi. Bu bosqichda asosiy nazariy qarashlar, qarama-qarshi fikrlar va xalqaro tajribalar umumlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda taqqoslama tahlil usuli qo‘llanildi. AQSh, Venesuela, Yevropa davlatlari hamda O‘zbekiston tajribalari o‘zaro solishtirildi. Ushbu mamlakatlar turli iqtisodiy tizim va boshqaruv sharoitlariga ega bo‘lgani sababli ular orqali narx siyosatining turli natijalarini ko‘rish mumkin bo‘ldi.

Uchinchi bosqichda ikkilamchi statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Inflyatsiya darajasi, oziq-ovqat narxlari indeksi, energiya tariflari, ishlab chiqarish hajmi va aholining real daromadlari bo‘yicha ochiq manbalar ma’lumotlari tahlil qilindi. Asosiy manbalar sifatida Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi hamda O‘zbekiston Statistika agentligi ma’lumotlaridan foydalanildi[14].

Tahlilda talab va taklif modeli asosida narx chegaralarining bozorga ta’siri izohlandi.

$$Qd=a-bP,\ Qs=c+dP$$

Ushbu model orqali narx pasaytirilganda talab ortishi, taklif qisqarishi va tanqislik yuzaga kelishi tushuntirildi. Shuningdek, narx oshirilganda ortiqcha taklif holati yuz berishi ko‘rsatildi.

Mazkur tadqiqotda institutsional tahlil usuli ham qo‘llanildi. Ya’ni davlat boshqaruvi sifati, nazorat mexanizmlari, korrupsiya darajasi va raqobat muhiti kabi omillar narx siyosati natijalariga qanday ta’sir ko‘rsatishi baholandi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Birinchidan, ayrim mamlakatlar bo‘yicha to‘liq va ishonchli statistik ma’lumotlar yetarli emas. Ikkinchidan, narx nazorati natijasini boshqa iqtisodiy omillardan to‘liq ajratib ko‘rsatish qiyin. Uchinchidan, siyosiy qarorlarning ijtimoiy ta’sirini raqamlar bilan to‘liq ifodalash har doim ham mumkin emas.

Shunga qaramay, qo‘llangan metodologiya narxlarni tartibga solishning afzalliklari va kamchiliklarini xolis baholash hamda O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan narxlarni tartibga solish siyosatini bir tomonlama yaxshi yoki yomon deb baholab bo‘lmaydi. Uning samarasi iqtisodiy sharoit, qo‘llash muddati, bozor tuzilmasi va davlat boshqaruvi sifatiga bevosita bog‘liq. Shu sababli narx nazorati masalasi nazariy emas, avvalo amaliy va sharoitga mos siyosiy qaror sifatida ko‘rilishi lozim.

Qisqa muddatli davrda narxlarni cheklash ayrim ijobiy natijalar berishi mumkin. Ayniqsa inflyatsiya keskin oshgan, energiya taqchilligi yuzaga kelgan yoki tabiiy ofatlar sababli bozorda keskin tebranish kuzatilgan vaziyatlarda davlatning vaqtinchalik aralashuvi aholi farovonligini saqlashga yordam beradi. Zarur mahsulotlar narxining keskin oshib ketishini jilovlash orqali kam daromadli qatlam iste’mol imkoniyatlarini yo‘qotib qo‘ymasligi mumkin. Shu jihatdan narx nazorati ijtimoiy himoya vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq uzoq muddatli tajribalar shuni ko‘rsatadiki, narxlarni sun’iy ravishda past darajada ushlab turish ishlab chiqaruvchilar rag‘batini kamaytiradi. Korxona foydasi qisqargan sari ishlab chiqarish hajmi kamayadi, investitsiya kechiktiriladi va yangi tadbirkorlarning bozorga kirishi susayadi. Natijada taklif qisqaradi va bozorda tanqislik paydo bo‘ladi. **Qd>Qs** Bunday sharoitda rasmiy narx past bo‘lsa ham, mahsulotni topish qiyinlashadi. Demak, iste’molchi nominal jihatdan yutgandek ko‘rinsa-da, amalda zarar ko‘rishi mumkin.

Narx nazoratining yana bir salbiy tomoni yashirin bozorlarning shakllanishidir. Rasmiy narxda mahsulot topilmagan holatda ayrim sotuvchilar uni norasmiy bozorda yuqori narxda sotishga harakat qiladi. Bu holat resurslarning adolatsiz taqsimlanishiga, korrupsiya xavfining ortishiga va davlat nazoratining samarasizlashishiga olib keladi. Ayniqsa nazorat mexanizmlari zaif mamlakatlarda bunday oqibatlar tez yuzaga chiqadi.

Sifat masalasi ham muhimdir. Narxlar cheklangan sharoitda ishlab chiqaruvchi xarajatni kamaytirishga intiladi.

Natijada mahsulot sifati pasayishi, xizmat ko‘rsatish darajasi yomonlashishi yoki ta’mirlash va modernizatsiya ishlari qisqarishi mumkin. Bu holat uy-joy bozori, kommunal xizmatlar, farmatsevtika va oziq-ovqat tarmoqlarida ayniqsa seziladi. Shunday ekan, past narx har doim ham yuqori farovonlik degani emas.

Narxning quyi chegarasi, ya’ni minimal narx belgilash siyosati ham ikki tomonlama natija beradi. U fermerlar, ishlab chiqaruvchilar yoki strategik tarmoqlar daromadini himoya qilishi mumkin. Ammo bozor talabidan yuqori narx belgilanganda ortiqcha mahsulot paydo bo‘ladi, davlat xaridi ko‘payadi va byudjet xarajatlari oshadi. **Qd>Qs** Shu sababli minimal narx siyosati ham ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi zarur.

O‘zbekistan sharoitida narxlarni tartibga solish masalasi alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda bozor islohotlari chuqurlashib borayotgan bir paytda energiya tariflari, kommunal xizmatlar va ijtimoiy ahamiyatga ega ayrim mahsulotlar bo‘yicha davlat roli saqlanib qolmoqda. Bu yerda asosiy vazifa narxlarni sun’iy ushlab turish emas, balki aholining himoyaga muhtoj qatlamlarini manzilli qo‘llab-quvvatlashdan iborat bo‘lishi kerak. Chunki umumiy narx subsidiyasi ko‘pincha boy va kambag‘al qatlamga bir xil foyda beradi, bu esa resurslardan samarasiz foydalanishga sabab bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, manzilli subsidiya va pul kompensatsiyasi usullari ko‘proq samarali hisoblanadi. Agar davlat energiya yoki oziq-ovqat narxini barcha uchun sun’iy pasaytirsa, katta iste’mol qiluvchi yuqori daromadli qatlam ko‘proq foyda oladi. Agar yordam bevosita ehtiyojmand oilalarga yo‘naltirilsa, davlat mablag‘i ancha adolatli va natijador ishlatiladi. Bu yondashuv bozor narx signallarini ham saqlab qoladi.

Narx siyosatida raqobat muhiti hal qiluvchi omildir. Ko‘plab hollarda narxlarning yuqoriligi davlat aralashuvi yetishmasligidan emas, balki bozorning yetarli raqobatlashmaganidan kelib chiqadi. Monopoliya yoki oligopoliya mavjud bo‘lsa, narx nazorati vaqtinchalik yechim bo‘lishi mumkin, ammo uzoq muddatda raqobatni kuchaytirish, bozorga kirish to‘siqlarini kamaytirish va xususiy investitsiyani rag‘batlantirish muhimroq natija beradi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, narxlarni tartibga solish siyosatining eng maqbul shakli — vaqtinchalik, aniq maqsadli va shaffof mexanizmdir. Favqulodda holatda qisqa muddatli narx cheklovi, zaxira fondlari, logistika yordami va manzilli kompensatsiya birgalikda qo‘llansa ijobiy samara beradi. Ammo bu choralar doimiy tus olsa, iqtisodiy samaradorlik pasayadi.

Umumiy xulosa shundan iboratki, narx nazorati muammoning o‘zi emas, balki uni noto‘g‘ri va uzoq muddat qo‘llash muammoga aylanadi. Davlatning vazifasi narxni buyruq bilan belgilash emas, balki adolatli raqobatni ta’minlash, zaif qatlamlarni himoya qilish va bozordagi vaqtinchalik izdan chiqishlarni yumshatishdan iboratdir. Aynan shunday yondashuv barqaror iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot davlat tomonidan narxlarni tartibga solish siyosati iqtisodiyotda murakkab va ko‘p qirrali natijalarni yuzaga keltirishini ko‘rsatdi. Narx nazorati qisqa muddatda inflyatsion bosimni yumshatish, aholining kam daromadli qatlamini himoya qilish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxini barqarorlashtirishda muayyan samara berishi mumkin. Ayniqsa urush, pandemiya, logistika uzilishi yoki energetika inqirozi kabi favqulodda holatlarda davlatning vaqtinchalik aralashuvi iqtisodiy barqarorlikni saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari narxlarni uzoq muddat sun’iy ravishda cheklab turish ko‘plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishini tasdiqladi. Bunday siyosat ishlab chiqarish rag‘batining susayishi, investitsiyalar kamayishi, mahsulot sifati yomonlashuvi, bozorda tanqislik va yashirin savdo kengayishiga olib keladi. Natijada dastlab iste’molchini himoya qilish uchun joriy etilgan mexanizm oxir-oqibat aynan iste’molchining o‘ziga zarar yetkazishi mumkin.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, narx nazoratining muvaffaqiyati uning o‘zida emas, balki qanday sharoitda, qancha muddatga va qanday qo‘shimcha siyosatlar bilan birga qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. Raqobat muhiti rivojlangan, institutlari mustahkam va nazorat tizimi shaffof mamlakatlarda vaqtinchalik aralashuv nisbatan samarali bo‘lishi mumkin. Aksincha, bozor mexanizmlari zaif, korrupsiya yuqori va ishlab chiqarish bazasi cheklangan iqtisodiyotlarda qat’iy narx nazorati ko‘proq salbiy natija beradi.

O‘zbekistan uchun eng maqbul yo‘l narxlarni umumiy tarzda bostirish emas, balki bozor tamoyillarini saqlagan holda ijtimoiy himoyani kuchaytirishdan iborat. Xususan, manzilli subsidiyalar, kam ta’minlangan oilalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kompensatsiyalar, raqobatni kengaytirish, logistika samaradorligini oshirish va mahalliy ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash uzoq muddatda ancha barqaror natija beradi[14;15].

Ilmiy nuqtai nazardan, davlat narxni emas, bozor sharoitini boshqarishi lozim. Ya’ni narxlarni buyruq bilan belgilash o‘rniga sog‘lom raqobat, adolatli qoidalar va samarali ijtimoiy himoya tizimini yaratish ustuvor bo‘lishi kerak. Aynan shu yondashuv iqtisodiy samaradorlik bilan ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, narxlarni tartibga solish siyosati favqulodda vaziyatlarda zarur vosita bo‘lishi mumkin, biroq doimiy iqtisodiy strategiya sifatida emas. Barqaror taraqqiyotning asosiy omili erkin va raqobatbardosh bozor, kuchli institutlar hamda aniq yo‘naltirilgan ijtimoiy siyosatdir.

References

1. Marshall, Alfred. (1890). Principles of Economics. London: Macmillan.
2. Keynes, John Maynard. (1936). The General Theory of Employment, Interest and Money. London: Macmillan.
3. Mankiw, N. Gregory. (2021). Principles of Economics (9th ed.). Boston: Cengage.
4. Pindyck, Robert S.., & Rubinfeld, Daniel L.. (2018). Microeconomics (9th ed.). New York: Pearson.
5. Stiglitz, Joseph E.. (2015). Economics of the Public Sector (4th ed.). New York: Norton.
6. World Bank. (2024). Global Economic Prospects. Washington, DC.
7. International Monetary Fund. (2024). World Economic Outlook. Washington, DC.
8. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2023). Economic Policy Reforms. Paris.
9. Akerlof, George A.. (1970). The market for lemons: Quality uncertainty and the market mechanism. Quarterly Journal of Economics, 84(3), 488–500.
10. Glaeser, Edward L.., & Luttmer, Erzo F.P.. (2003). The misallocation of housing under rent control. American Economic Review, 93(4), 1027–1046.
11. Food and Agriculture Organization. (2024). Food Price Monitoring Report. Rome.
12. European Union. (2023). Agricultural Market Briefs. Brussels.
13. Asian Development Bank. (2024). Asian Development Outlook. Manila.
14. Statistika agentligi. (2024). O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari. Toshkent.
15. Markaziy bank. (2024). Inflyatsiya sharhi. Toshkent.